

**GERMANIYA , DANIYA VA POLSHA SELEKSIYASIGA MANSUB  
SIGIRLARNING KLINIK KO‘RSATKICHLARINI O‘RGANISH***Ilmiy rahbar**Amonov Rasul Chorshambi o‘g‘li,**Bakalavr: Ajimuratov Arslanbek Polat uli**Bakalavr : Jumabaev Quwanish Islam uli**Bakalavr : Orinbaev Niazbek Qallibek uli**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali*

**Annotatsiya.** Bu maqolada Germaniya , Daniya va Polsha seleksiyasiga mansub sigirlarning klinik ko‘rsatkichlari o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tana harorati, yurak urishi, nafas olishi, bahorda, yozda, kuzda, qishda .

**Kirish.** Qishloq xo‘jalik hayvonlarining urchitish sharoitlariga, ayniqsa issiq iqlim sharoitiga moslashganlik darajasini va ular organizmida moddalar almashinuvi hamda fiziologik holatini baholashda ularning klinik ko‘rsatkichlarini o‘rganish alohida ahamiyatga ega.

**Tatqiqot maqsadi.** 1-jadvalda tajriba guruhlaridagi sigirlarning yil fasllari bo‘yicha klinik ko‘rsatkichlari keltiriladi.

Jadval ma‘lumotlarining ko‘rsatishicha, yil fasllaridan qat‘iy nazar, barcha guruhlardagi sigirlarning klinik ko‘rsatkichlari me‘yor talablari darajasida bo‘ldi. Ammo yoz faslida barcha guruhlardagi sigirlarning tana haroratlari boshqa fasllardagi ko‘rsatkichdan biroz yuqori, ya‘ni I guruhda yoz faslida bahordagiga nisbatan 0,1 °S va qishdagiga nisbatan 0,3 °S, II guruhda yozda bahor va kuzdagiga nisbatan 0,1 °S va qishdagiga nisbatan 0,3 °S, III guruhda esa yozda bahor va kuzdagiga nisbatan 0,1 °S va qishdagiga nisbatan 0,2 °S yuqori bo‘lganligi kuzatildi. joylashganligi bilan ajralib turadi.

**Tatqiqot manbai va usullari.** Bizning tajriba o‘tkazgan obekt Samarqand viloyatidagi “Siyob-Shavkat-Orzu” fermer xo‘jalikda tajriba o‘tqazildi.

**Tatqiqot natijalari.** Shunga o‘xshash natijalar sigirlarning boshqa klinik ko‘rsatkichlarida ham kuzatildi. Masalan, I, II va III guruhlardagi sigirlarning 1 daqiqada yurak urishi yoz faslida bahordagiga nisbatan tegishli ravishda 1,4; 1,4 va 1,4 marta, kuzdagiga nisbatan 1,6; 1,6 va 0,8 marta hamda qishdagiga nisbatan 2,8; 2,8 va 2,6 marta yuqori bo‘ldi hamda nafas olishi 2,0; 1,2 va 1,8 marta, kuzdagiga qaraganda 1,0; 1,2 va 1,4 marta hamda qishdagiga nisbatan 1,8; 2,0 va 2,2 marta yuqori bo‘lganligi kuzatildi.

Shunga oʻxshash natijalar qora ola va golshtin zotli sigirlarda J.Xujamov va boshqa olimlar tadqiqotlarida ham olingan. Muallif yoz faslida boshqa fasllarga nisbatan sigirlarda klinik koʻrsatkichlar biroz yuqori boʻlishini kuzatgan, bu esa yozda sigirlar organizmida almashinuv jarayonlari biroz yuqori darajada kechishidan dalolat beradi.

**1-jadval**
**Germaniya , Daniya va Polsha seleksiyasiga mansub sigirlarning yil fasllari  
boʻyicha klinik koʻrsatkichi**

Koʻrsatkichlar			

**XULOSA**

Shunday qilib, tadqiqotlarimiz yil fasllaridan va sigirlarning mahsuldorlik darajasidan qat'iy nazar, ularning klinik koʻrsatkichlari fiziologik meʼyor talablari darajasida boʻldi. Bu esa sigirlar urchitish sharoitlariga yaxshi moslashganligidan dalolat beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Nosirov U.N. Qoramolchilik. Toshkent. 2001. 383 b.
2. Nosirov U.N., Shakirov Q. O‘zbekiston sharoitida golshtin va flegfix simmental zotlarining iqlimga moslashish, nasldorlik va mahsuldorlik sifatlarini takomillashtirish. Avtoref. diss. s.-x. nauk. Tashkent. 2015. 34 s.
3. Нарбаева М.К. Продуктивность голштинских черно-пестрых пород и их помесей с условиях южной зоны Узбекистана. Автореферат дисс.канд. с-х.наук. Ташкент.2011. 21 с.

